




## QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI

2019 yilning yanvar - mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 688,9 mlrd.so‘mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 102,7 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar–602,0 mlrd.so‘mni (103,4 foiz), o‘rmon xo‘jaligida – 73,7 mlrd.so‘mni (101,7 foiz), baliqchilik xo‘jaligida–13,2 mlrd.so‘mni (108,6 foiz) tashkil qildi. Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shishi asosan chorvachilik, baliq, o‘rmon va ushbu sohada ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli darajada oshishi bilan izohlanadi.

Xususan yuqori o‘shish sur‘atlari Nukus shaxrida (119,3 foiz), Amudaryo (106,5 foiz), Shumanoy (105,2 foiz) tumanlarida kuzatildi. To‘rtko‘l (100,2 foiz), Kegeyli (100,3 foiz) tumanlarida esa aksincha past sur‘atlar kuzatildi.


### Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Amudaryo tumanining ulushi 14,3 foizni, Chimboy tumani 13,5 foizni tashkil etdi, Beruniy va Ellikqala tumanlari mos ravishda 11,4 foiz va 11,1 foiz ko‘rsatkich bilan keyingi o‘rinlarni egalladi. Eng kam ulush Nukus shahrida (0,9 foiz) qayd etildi.

## QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI

### Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




### Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari.

2019 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining 2018 yilning mos davriga nisbatan o‘shishi 103,4 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 106,3 foizni, chorvachilik mahsulotlari–103,0 foizni tashkil qildi.


Xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 87,2 foizi – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 11,4 foizi – fermer xo‘jaliklariga, 1,4 foizi – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

### Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



## QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI

Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha hududlar kesimida taqsimlanishi





**Dehqonchilik:** 2019 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 52,8 mlrd.soʻmni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 106,3 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy xajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 8,8 foizni tashkil qildi.

**Hosilni yigʻib olish:** Joriy yilning yanvar– mart oylarida 486 tonna sabzavot (2,0 marta), 36 tonna meva (3,3 marta), mahsulotlari yigʻib olindi.

**2018 yilning yanvar- martida xoʻjalik toifalari boʻyicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

	Ferma xoʻjaliklari		Dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari		Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	<i>tonna</i>	<i>oʻsish surati, foizda</i>	<i>tonna</i>	<i>oʻsish surati, foizda</i>	<i>tonna</i>	<i>oʻsish surati, foizda</i>
Sabzavot	4	133,3	232	103,1	250	19,2m
Meva	25		11	100,0		



## QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI




**Chorvachilik:** 2018 yilning yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 544,7 mlrd.so‘mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 103,0 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 91,2 foizni tashkil etdi.

Barcha toifadagi xo‘jaliklarda chorvachilik mahsulotlarining ko‘payishi go‘sht ishlab chiqarish hajmining – 3,3 foizga, sut – 2,6 foizga, tuxum – 6,0 foizga o‘shishi bilan izohlanadi.

2019 yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 14,6 ming tonna go‘sht, 47,2 ming tonna sut, 74,9 mln.dona tuxum, 24877 dona qorako‘l teri mahsulotlari ishlab chiqarildi



### Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi



Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 95,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 92,0 foizi, tuxumning 93,0 foizi, qorako'l terining 93,3 foizi ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

### 2018yil yanvar- mart oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mah'sulotlari

	<i>miqdori</i>	<i>o'sish surati, %</i>
<b>Go'sht (tirik vaznda), ming tn.</b>	<b>14,6</b>	<b>103,3</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	0,5	109,5
Dehqon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	14,0	103,4
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,1	69,7
<b>Sut, ming tn.</b>	<b>47,2</b>	<b>102,6</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	3,3	100,5
Dehqon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	43,5	102,9
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,4	85,7
<b>Tuxum, mln. dona</b>	<b>74,9</b>	<b>106,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	2,8	104,5
Dehqon (ah'olining shaxsiyyordamchi) xo'jaliklari	69,7	103,4
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,4	3,8 m.

## Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni

Joriy yilning 1 aprel holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1092,5 ming boshga, shu jumladan sigirlar 315,5 ming boshga, qo'y va echkilar 1082,6 ming boshga, otlar 23666 parrandalar 4312,7 ming boshga yetdi.

2018 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 35,4 ming boshga (3,3 foizga), shu jumladan sigirlar 11,7 ming boshga (3,9 foizga), qo'y va echkilar 39,2 ming boshga (3,8 foizga), parrandalar 0,4 mln boshga (11,2 foizga) ko'paydi.

2019 yilning 1 aprel holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,5 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 94,8 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,7 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 9,5 foizi fermer xo'jaliklariga, 89,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,3 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 5,6 foizi fermer xo'jaliklariga, 88,1 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 6,3 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

### 2019 yil 1 aprel holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni

	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish surati, %</i>
<b>Yirik shoxli qoramol</b>	<b>1092,5</b>	<b>103,3</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	48,7	108,2
Dehqon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	1035,3	103,1
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	8,5	103,0
<b>ulardan sigirlar</b>	<b>315,5</b>	<b>103,9</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	15,4	105,5
Dehqon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	297,4	103,7
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,7	108,0
<b>Qo'y va echkilar</b>	<b>1082,6</b>	<b>103,8</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	102,3	134,6
Dehqon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	966,1	102,9
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	14,2	50,2
<b>Otlar</b>	<b>23,7</b>	<b>106,6</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	4,2	134,4

	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish surati, %</i>
Deh'qon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	19,1	102,5
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,4	82,7
<b>Parrandalar</b>	<b>4312,7</b>	<b>111,2</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	239,9	102,4
Deh'qon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	3800,9	108,5
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	271,9	193,8

**Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi**  
**Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: **N. Madreymov**  
(61) 222-76-07